

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Fizika-matematika fakulteti

“Axborot texnologiyalari” kafedrası

Fayziyeva O'lmasoy Istam qizining

**“UNIVERSITET INFORMATSION TIZIMIDA IQTIDORLI TALABALAR
BILAN ISHLASH MONITORINGI MODULINI YARATISH”**

“Amaliy matematika va informatika” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr
darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

“Ish ko'rildi va himoyaga ruxsat
berildi”

Kafedra mudiri

_____ dots.T.B.Boltayev

«___» _____ 2016 y.

Ilmiy rahbar _____ **I.O.Jalolov**

«___» _____ 2016 y.

Taqrizchi _____

«___» _____ 2016 y.

«Himoya qilishga ruxsat berildi»

Fakultet dekani _____ prof.Sh.M.Mirzayev

«___» _____ 2016 y.

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB.Foydalanilgan dasturiy ta'minot va texnologiyalar.	
1.1.SQL server 2008 dasturi va uning imkoniyatlari	6
1.2.SQL tili	12
1.3.HTML tili va PHP dasturlash tili	18
1.4.Universitet informatsion tizimining funksional imkoniyatlari	28
II BOB. Universitet informatsion tizimida iqtidorli talabalar bilan ishlash monitoringi modulini yaratish	
2.1.Modul spetsifikatsiyasi	33
2.2.ER modeli loyihasi	48
2.3.Foydalanuvchi grafik interfeysi	55
2.4.Qo'yilgan masalaning dasturini amalga oshirish	60
Xotima	62
Adabiyotlar	63

Yuksak marralarni ko'zlagan
har qanday millat, xalq uchun
ta'limni rivojlantirish hayot va
mamot masalasidir.

I.A.Karimov.

Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik odimlarini dadil qo'yayotgan hozirgi davrda axborotlashgan jamiyat qurish masalasi mamlakatimiz uchun naqadar katta ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas. Internet hayotimizning bir bo'lagiga aylandi, biz uning xizmatlaridan har kuni foydalanishga odatlandik. Respublikamizda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirishni jadllashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining salohiyati iqtisodiy rivojlanishning yanada yuqori pog'onasiga ko'tarilishga amaliy imkoniyat ta'minlovchi asosiy ijtimoiy resurs sifatida gavdalanadi.

Respublikamiz ta'lim tizimidagi asosiy vazifa jahon talablariga mos keluvchi axborot texnologiyalarini o'qitish jarayoniga qo'llashdan iborat. O'zbekistonda ta'lim tizimining axborotlashtirilishi xalqaro hamjamiyatda ham tan olindi. Masofaviy ta'limni rivojlantirish bo'yicha bir qator dasturlar ishlab chiqilmoqda. Iqtisodiyot va jamiyatda islohotlarning o'tkazilishi natijasida o'quv jarayonining zahira hajmini keskin oshirish bo'yicha yangi talablar qo'yildi. Hozirgi kunda axborot eng asosiy ishlab chiqaruvchi resurslardan biriga, iqtisodiyot va umuman jamiyatning rivojlanish poydevoriga aylanmoqda.

Yangi axborot - kommunikatsion texnologiyalar hozirgi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelmoqda, sababi har bir sohani o'rganish, izlanish va tajriba orttirish uchun turli usullardan foydalanish kerak bo'ladi. Shuning uchun yangi axborot kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Respublikamizda olib borilayotgan islohotlarning tarkibida yuqori malakali mutaxasislarning roli benihoya kattadir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Ertangi

kun yangicha fikrlay oladigan zamonaviy bilimga ega bo'lgan yuksak malakali mutaxasislarni talab etadi". Shu sababli xalqimizning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlari, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalar asosida yuksak mutaxasislar tayyorlash tizimi ishlab chiqildi va jadal sur'atlar bilan hayotga tadbiiq etilmoqda.

O'zbekistonda o'qitish texnologiyalarini zamonaviylashtirish, jadallashtirish rivojlangan iqtisodiyotli mamlakatlarga qaraganda yanada dolzarb ahamiyatga ega. Chunki hozirgi kunda milliy ta'lim tizimining salohiyatli tizimli rivojlanishi yanada yuqori pog'onaga ko'tarildi.

1.Mavzuning dolzarbligi: Universitet informatsion tizimida iqtidorli talabalar bilan ishlash monitoringi modulini yaratish

2.Bitiruv malakaviy ishimizning maqsadi: Iqtidorli talabalar bilan ishlashni qo'llab-quvvatlash, vaqtni tejash va kerakli hisobotlarni ortiqcha qiyinchiliklar va vaqt sarflamasdan olish. Iqtidorli talabalar ilmiy faoliyatini nazorat qilib borish.

3.Bitiruv malakaviy ishimizning vazifasi: Universitetdagi mavjud tizim bilan bog'langan holda iqtidorli talabalarning ilmiy faoliyatining monitoringini olib borish.

4.Bitiruv malakaviy ishimizning o'rganganlik darajasi: Oliy ta'lim muassasalari uchun iqtidorli talabalar faoliyatini olib borish va nazorat qilish hamda birqancha tez zarur bo'lgan hisobotlarni tayyorlash muammolari amaliy hamda nazariy jihatdan o'rganildi.

5.Bitiruv malakaviy ishimizning predmeti: SQL server 2008 berilganlar bazasini boshqarish tizimi, universitetda mavjud informatsion tizim, HTML tili, php Designer 7 dasturi, php dasturlash tili.

6.Bitiruv malakaviy ishimizning obykti: SQL server 2008 berilganlar bazasini boshqarish tizimi, universitetda mavjud informatsion tizim, HTML tili, php Designer 7 dasturi, php dasturlash tili.

7.Bitiruv malakaviy ishimizning ilmiy farazi: Iqtidorli talabalar ishlarini nazorat qilish, o'z ustida ishlashni kuchaytirish, faol talabalarni rag'batlantirish, olimpiada va tanlovlarda qatnashishni ta'minlash.

8.Bitiruv malakaviy ishimizning yangiligi: Yaratilgan ER model, foydalanuvchi interfeysi dizayni va qayta ishlash algoritmi.

9.Bitiruv malakaviy ishimizning amaliy ahamiyati: Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli talabalar faoliyatini nazorat qilish uchun va kerakli hisobotlarni tezkor amalga oshirish uchun qulay tizim yaratish.

10.Bitiruv malakaviy ishimizning metodologik asosi: Bitiruv malakaviy ishi dasturiy mahsulot tayyorlash metodologiyasiga asoslanib quyidagi etaplarda amalga oshiriladi: tadbqiqiy sohani tizimli tahlil qilish ,tizimli web loyihalash va tayyorlangan web loyihani amalga oshirish .

11.Bitiruv malakaviy ishimizning metodlari: Web arxitekturaga asoslangan MS SQL ma'lumotlar bazasida saqlanib, axborot xavfsizligi, ma'lumotlarning butunligi va tranzaksion funksiyalar ushbu ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi metodlariga asoslanadi.

12.Bitiruv malakaviy ishimizning tarkibi va hajmi: Kirish, 2 ta bob, har bir bobning qisqacha xulosasi, adabiyotlar ro'yxati va xotimadan iborat bo'lib, jami 64 betda bayon qilingan.

Universitetning mavjud informatsion tizimini o'rganish, Universitetning ER modeli SQL server berilganlar bazasiga joylashtirish. SQLga joylashtirilgan mavjud informatsion tizim bazasini, bazada joylashgan jadvallarni o'rganish. Universitet informatsion tizimining funksiyalarini o'rganish. Bu tizimda talabalar haqida to'liq ma'lumot berilgan. Talaba bemalol internetga bog'langan bu tizimdan o'zlarining o'qituvchilar tomonidan olgan ballarini ko'rishlari mumkin.

Yaratilgan ma'lumotlar bazamiz bo'sh, ya'ni hech qanday jadvallari yo'q. Shuning uchun keyingi vazifamiz jadvallarni yaratish bo'ladi. Jadvallarning tuzilishi xuddi Access da tuzilgan jadvallar kabi bo'ladi.[3]

Jadvallarni yaratish uchun <<Tables>> novdasining kontekstli menyusidan <<New Table>> ni tanlaymiz.

Jadvallar orasidagi bog'lamni aniqlash uchun birlamchi kalitni berish zarur. Buning uchun zarur bo'lgan maydonning kontekstli menyusidan <<Set primary key>> ni tanlash kerak.

Jadvallar orasidagi bog'lamni va ma'lumotlar sxemasini yaratish uchun yangi ma'lumotlar bazasining diagrammasini yaratish zarur. Buning uchun <<Database Diagrams>> novdasining kontekstli menyusidan kerakli punktni tanlaymiz. Hosil bo'lgan oynada, diagrammaga kerakli bo'lgan jadvallarni qo'shamiz.

Management Studio muhitida so'rov yaratish quyidagicha amalga oshiriladi. <<Views>> novdasining kontekstli menyusidan <<New view>> punktni tanlaymiz. Shundan so'ng kerakli ustun va jadvallarni tanlaymiz.

1.1.2 Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimlari.

Ma'lumotlar bazasini loyihalashtirish jarayoni ikki bosqichga bo'linadi: MB mantiqiy tuzilishini tashkil qilish va tashuvchilarda MB ni hosil qilish.

MB ning mantiqiy tuzilishi-obyektga tegishli bo'lgan axborotlarning MB da joylanishini ifodalaydi. Hosil bo'lgan MB ning mantiqiy bog'lanish modeli birinchi bosqichning natijasi hisoblanadi. Bu modelda uch turdagi axborot ifodalanadi: obyekt to'g'risidagi xabarlar, ularning xususiyati va o'zaro munosabatlari. Har bir obyekt modelda yozuv turlari orqali ko'rsatiladi. Ularning xususiyatlari yozuv maydonlari orqali ifodalanadi, munosabatlar esa – yozuv va maydon turlari o'rtasidagi aloqalar yordamida tasvirlanadi. Bunday model EHM, operatsion tizim, MBBTning mohiyatiga bog'liq bo'lmaydi, ya'ni axborotning ma'nosiga bog'liq bo'lmagan holda ularni ifodalash usuli va aloqasini ta'minlaydi.

Mantiqiy modelni chizmalı va jadvalli usullar yordamida ifodalash mkin. Chizmalı usullarda ma'lumotlar o'rtasidagi bog'lanish graflar yordamida

tasvirlanadi. Bunda grafning uchlari yozuvlarni ifodalaydi. Graflarning qirralari yozuvlar o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatadi. Jadvalli usulda esa obyekt to'g'risidagi ma'lumotlar bir yoki bir necha ustundan iborat bo'lgan jadvallar orqali ifodalanadi.

Hozirgi kunda mantiqiy modellarning pog'onali, tarmoqli va relyatsion turlaridan foydalanilmoqda. Shaxsiy EHMLarning paydo bo'lishi relyatsion modellarning keng tarqalishiga sababchi bo'ldi.

Pog'onali model chizmalı usul asosida tashkil qilinadi. Bunda ma'lumot yozuvlari grafikning uchlarini ifodalaydi va har bir yozuv oldingi pog'ona uchlariga bog'langan bo'ladi. Bunday tuzulishdagi MB dan tegishli axborotlar hamma vaqt bitta yo'nalish bo'yicha qidiriladi va uning joylashgan o'rni to'liq ko'rsatiladi. Masalan, «Talaba» to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun «Fakultet», «Kurs», «Guruh» yozuvlarini ko'rsatilishi lozim.

Tarmoqli model ham chizmalı usul yordamida tashkil qilinadi. Lekin, bnda tegishli axborotlar bir necha yo'nalish bo'yicha olinishi mumkin. Masalan, «Talaba» to'g'risidagi ma'lumotlarni olish uchun yuqoridagi tasvirga «Muallim-fan» va «Fan-talaba» tarmoqli modeli hosil bo'ladi.

Relyatsion model jadvalli usul asosida tashkil qilinadi. Bunda tegishli ma'lumotlar jadvalning ustun va qatorlarida joylashadi. Ustunlar ma'lumotning maydonlarini, qatorlar esa yozuvlarini ifodalaydi. Bir ustunda ma'lum sohaga tegishli bo'lgan bir qancha ma'lumotlar joylashadi. Qatorda esa ustunlarda joylashgan ma'lumotlar ko'rsatiladi. Ustun va qator o'rtasidagi bog'lanish munosabat deb ataladi. Har bir ustun, qator va munosabat o'z nomiga ega bo'ladi.

Relyatsion modeldagi munosabatlar quyidagi talablar orqali hosil qilinadi:

-ustun va qator kesishgan yerda joylashgan ma'lumotlar elementlar hisoblanadi;

-munosabatlarda ikkita bir xil qator bo'lmaydi;

-ustun va qatorlarning tartibli joylashishi va nomlanishi majburiy emas.

MB ni tashuvchilarda hosil qilish bosqichi fizik tuzilishni tashkil etadi. Fizik tuzilish tashqi xotiralarda ma'lumotlarni joylashtirish usullari va vositalaridan iborat bo'lib, uni natijasida ichki model hosil qilinadi.

Ichki model ma'lumotning mantiqiy modelini tashuvchilarda aks ettiriladi va yozuvlarning joylanishi, aloqasi va tanlab olinishini ko'rsatadi. Ichki model MBBT orqali hosil qilinadi:

-ma'lumotlarning mantiqiy tuzilishini saqlash;

-tashqi xotiradan maksimal foydalanish;

-MB ni yuritish xarajatlarini kamaytirish;

-ma'lumotni qidirish va tanlash jarayonlarining tezkorligini oshirish va boshqalar.

Ma'lumki, bir algoritm bo'yicha turli tillar yordamida ekvivalent dasturlarini yaratish mumkin. Shunga bog'liq holda bitta mantiqiy model orqali bir qancha kichik (fizik) modellarni yaratish mumkin. Lekin aratilgan modellardan biri optimal bo'ladi. Shu sababli, MB ni hosil qiluvchi mutaxassislar oldida ichki modelning optimal variantini topish masalasi turibdi. Bunda optimallik mezoni sifatida yuqoridagi talablarni olish mumkin.

Saqlanayotgan ma'lumotlarning tuzilishi, ularni qidirish usullari va ifodalanish tillari fizik modellashtirishning asosiy vositalari hisoblanadi.

Ma'lumotlarning tuzilishini fayl yozuvlar ko'rinishida tasvirlash mumkin. Bunday holda yozuvlar maydonlardan, ularning joylanish tartibidan, turi va uzunligidan iborat bo'ladi. Ma'lumotlarni qidirish vaqtini kamaytirish maqsadida turli qidirish usullari yaratilmoqda. Lekin ma'lumotlarning tuzilishi yozuvlarning tezroq topish yo'lini ko'rsatadi. Shuning uchun ham, MB fizik tashkil qilishda ikkita tamoyilga: ma'lumotlarning tuzilishi va qidirish usullari asosida MB ni hosil qilishga rioya qilinadi. Har qanday MB fizik tashkil qilish natijasida fayllar hosil qiladi. Shaxsiy kompyuterlarda bu fayllar ketma-ket yoki ixtiyoriy tartibda joylanishi mumkin. Bunday fayllarni bajarishda, ya'ni MBBT da chiziqli va zanjirli ro'yxat, tartiblashmagan va tartiblashgan qidirish usullaridan foydalaniladi.

Chiziqli ro'yxat-MB ni fizik tashkil qilishning eng oddiy usuli hisoblanadi. Bunda MB ning fayllari bog'lanmagan holda bo'ladi va tegishli yozuvlarni qidirish ma'lum bir algoritmlar asosida amalga oshiriladi. Chiziqli usul orqali xotiradan

samarali foydalanish mumkin, lekin ma'lumotlarni qidirish uchun boshqa usullarga qaraganda ko'p vaqt sarf qiladi.

Zanjirli ro'yxat usulida hosil qilingan faylda har bir yozuv boshqa yozuv bilan bog'langan bo'ladi. Bunda aloqa vositasi sifatida ko'rsatkichlar ro'yxatidan foydalaniladi. Ko'rsatkichlar ro'yxati yozuvning qo'shimcha maydonlarida ko'rsatiladi va ular orqali kerakli ma'lumotlarni olish tartibi o'rnatiladi.

Ro'yxatga kirish uchun ro'yxatning boshlang'ich manzilgohini (RBM) ko'rsatish lozim. Bu manzilgoh ro'yxat sarlavhasida (RS) saqlanadi.

Ma'lumki MB ning yozuvlari asosiy maydon bo'yicha tartiblashgan bo'ladi. Lekin yozuvlarni asosiy maydon bo'lmagan ustunlar orqali tartiblashgan holda izlash mumkin. Buning uchun tartiblashmagan fayllr hosil qilinadi.

Tartiblashmagan fayllar kerakli ma'lumotlarni tez qidirish imkoniyatini bersada, ularda saqlanayotgan ma'lumotlar bir necha marta takrorlanadi. Natijada xotiradan foydalanish samaradorligi kamayadi. Bu kamchilikni tugatish maqsadida fayllar tartiblashgan holga keltiriladi. Bunday holatlarda yozuvlar emas, balki ularning joylashgan manzilgohlari saqlanadi. Kerakli ma'lumotlar manzilgohlar bo'yicha qilinadi va u xotirada kam joyni egallaydi.

Bunday fayl MBBT orqali avtomatik tarzda hosil qilinadi. Tegishli ma'lumotlar manzilgoh indekslarini izlash orqali chiqariladi.

MBBTning asosiy vazifalari va xususiyatlari. Ma'lumki MBBT dasturiy va til vositalarining to'plamidan iborat bo'lib, ular yordamida Mbni hosil qilish, yuritish, tahrirlash va boshqa vazifalarni bajarish mumkin. Bunday tizim yordamida operatsiya tizimining ma'lumotlarini boshqarish bo'yicha imkoniyatlari kengayadi.

MBBTning vazifalarini uch guruhga ajratish mumkin:

-fayllarni boshqarish; ya'ni faylni ochish, nusxa olish, nomini o'zgartirish, tuzilishini o'zgartirish, qayta hosil qilish, tiklash, hisobot olish, bekitish va boshqalar;

-yozuvlarni boshqarish; ya'ni yozuvlarni o'qish, kiritish, tartiblashtirish, o'chirish va boshqalar;

-yozuv maydonlarini boshqarish.

Shuni ta'kidlash lozimki, ma'lumotlarni harflar dastasi yordamida kiritish, hisoblash, takroriy jarayonlarni amalga oshirish, ma'lumotlarni ko'rsatuv oynasi yoki bosmaga chiqarish MBBTning vazifalari qatoriga kirmaydi. Bu vazifalar amaliy dasturlar yordamida bajariladi. Bunday dasturlar MBBTning maxsus dasturlash tillari orqali hosil qilinadi.

Yuqorida keltirilgan vazifalar to'plami MBBTda uch turdagi dasturlarning bo'lishini talab qiladi: boshqaruvchi dastur, qayta ishlovchi (translyator) dastur va xizmat ko'rsatuvchi dastur. MBBT ishga tushishi bilan asosiy boshqaruvchi dastur xotirasiga yuklanadi. Boshqa dasturlar tegishli holda ishga tushiriladi.

MBBTni turkumlashda mantiqiy tuzilish asos qilib olingan. Shuning uchun ham tarmoqli, pog'onali va relyatsion MBBTlari mavjud. Relyatsion MBBTlari keng tarqalgan bo'lib, ular jumlasiga dBase III Plus, FoxBase, Fox Pro, Clipper, dBase IV, Paradox va boshqalar kiradi.

MBBT foydalanuvchi bilan malumotlar bazasi o'rtasidagi aloqani ta'minlovchi dastur sifatida ishtirok etadi. Uning funksiyalari menyu va dasturlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Menyu tartibida MBBTning funksiyalari ekranda tasvirlanadi. Foydalanuvchi kursorni xarakatlantirish orqali tegishli funktsiyani aniqlash va bajarishga chiqarishi lozim. Tizim aniqlangan funktsiyalarni bajarib bo'lgandan so'ng yana menyu holatiga qaytadi.

Dasturiy tartibda tegishli buyruqlar kiritiladi, dasturlar qayta ishlanadi va bajarishga chiqariladi. Bu holda MBBT interpretator tartibida ishlaydi va foydalanuvchidan dasturlash tillarini bilish talab qilinadi.

MBBTda foydalaniladigan dasturlash tillariga umumiy talablar bilan bir qatorda quyidagilar ham qo'yiladi:

- tilning to'liq bo'lishi;
- vazifalarni bajarish uchun tegishli vositalarning bo'lishi;
- aniqlangan ma'lumotlarni to'liq qayta ishlash va boshqalar.

Dasturlash tillar bir qator belgilarga ko'ra turkumlarga ajratiladi.

- o'zgaruvchanlik;

-jarayonlilik;

-foydalanilayotgan matematik apparat va boshqalar.

MBBTdagi dasturlar tegishli buyruqlarning to'plamidan tashkil topadi. Yechilayotgan masalalarning qiyinligiga qarab, dasturlar oddiy yoki murakkab tuzilishga ega bo'ladi. Oddiy tuzilishga ega bo'lgan dasturlarda buyruqlar ketma-ket joylashadi. Murakkab tuzilishli dasturlarda esa buyruqlar modullar holatida, ya'ni asosiy modul va quyi dasturlar to'plamidan iborat bo'ladi. Ma'lumotlar bazasini hosil qilishda modullik tamoyilidan foydalanish qulay va samaralidir.

1.2 SQL tili.

1.2.1 SQL tili va ma'lumotlar tiplari.

SQL ingliz tilidagi Structured Query Language yoki o'zbek tilidagi so'rovlar asosidagi strukturali til so'zlarining qisqartmasidan tashkil topgan. Bu til turli xildagi ma'lumotlar bazasiga murojaat qilish uchun standart imkoniyatlarga ega bo'lgan til hisoblanadi. Ko'plab bazalar bu til asosida o'zining versiyalariga ham ega. Lekin shunga qaramasdan SQL turli xil ko'rinishdagi ma'lumotlar bazalari bilan ishlash imkonini bera oladi.

SQL maxsus relyatsion ma'lumotlar bazasi bilan ishlashga mo'ljallangan til bo'lib, ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimini boshqarish uchun mo'ljallangan sorovlar tilidir. SQL tilining bir necha standartdagi ko'rinishlari mavjud. SQL-89 va SQL-92 eng keng tarqalgan hisoblanadi. SQL-92 standarti ANSI standarti deb ham ataladi.

SQLda boshqa dasturlash tillardagi kabi buyruqlar ko'p emas. Dasturlash tillaridagi ba'zi buyruqlar umuman qo'llanilmaydi. SQL tilidagi buyruqlar SQL so'rov deb ataladi. SQL tili maqsadli ma'lumotlarga murojaat etishga yo'naltirilgan.

Barcha SQL so'rovlarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin:

- **Statik SQL so'rovlar**-dastur kodiga kiritiladi va dastur bajarilishi jarayonida o'zgarmaydi. Bunday so'rovlarni o'zgartirish uchun faqat parametrlardan foydalanib amalga oshirish mumkin:
 - **Dinamik SQL so'rovlar**- dastur bajarilishi jarayonida hosil bo'ladi va o'zgaradi. Bunday so'rovlar ko'proq moslashuvchan bo'ladi va foydalanuvchining aniq bir harakatiga javob bera oladi.
- SQL tilida quyidagi asosiy ma'lumotlar tiplari ishlatilib, ularning formatlari har xil MBBT lar uchun farq qilishi mumkin.

1.1Jadval. SQL tilida tiplar.

INTEGER	-butun son (odatda 10tagacha qiymatli raqam va ishora).
SMALLINT	-“qisqa butun” (odatda 5 tagacha qiymatli raqam va ishora).
DECIMAL(p,q)	-o'nli son, p raqam va ishoradan iborat ($0 < p < 16$). O'nli nuqtadan so'ng raqamlar soni q orqali beriladi ($q < p$, agar $q = 0$ bo'lsa, tashlab yuborilish mumkin).
FLOAT	-haqiqiy son 15 ta qiymatli raqam va butun darajadan iborat. Darajada MBBT tipi bilan aniqlanadi (masalan: 75 yoki 307).
CHAR(n)	-uzunligi o'zgarmas, n ga teng bo'lgan simvolli qator ($0 < n < 256$).
VARCHAR(n)	-uzunligi o'garuvchi, n simvoldan oshmagan simvolli qator ($n > 0$ va har xil MBBTlarda har xil lekin 4096 dan kam emas).
DATE	-maxsus komanda orqali aniqlanuvchi formatdagi sana (Subaseda ko'zda tutilgan bo'yicha yy/mm/dd); sana maydonlari bizning eramizdan oldin bir necha mingyilliklardan boshlanuvchi va bizning eramiz beshinchi-o'ninchi mingyilligi bilan cheklangan haqiqiy sanalarni o'z ichiga olishi mumkin.

TIME	-maxsus komanda orqali aniqlanuvchi formatdagi vaqt (ko'zda tutilgan bo'yicha hh.mm.ss).
DATETIME	-sana va vaqt kombinatsiyasi. (Subaseda TIMESTAP).
MONEY	- maxsus komanda orqali aniqlanuvchi formatdagi pul. Format o'z ichiga pul birligi simvoli (\$, rub,...) va uning joylashuvi (suffiks yoki prefiks), kasr qism aniqligi va pul qiymatini ko'rsatish shartlarini oladi.

Jadvallarni yaratish.

Jadvallar CREATE TABLE komandasi bilan yaratiladi. Bu komanda qatorlarsiz bo'sh jadval yaratadi. CREATE TABLE komandasi jadval nomini va jadval o'zini ma'lum tartibda ko'rsatilgan ustunlar nomlari ketma-ketligi ta'rifi ko'rinishida aniqlaydi. U ma'lumotlar tiplari va ustunlar o'lchovini aniqlaydi. Har bir jadval juda bo'lmaganda bitta ustunga ega bo'lishi kerak.

CREATE TABLE komandasi sintaksisi:

```
CREATE TABLE <table-name>
(<column name>Mdate type>[(<size>)],
<column name>Mdate type>[(<size>)],...);
```

Argument qiymati kattaligi ma'lumot turiga bog'liqdir. Agar siz maxsus ko'rsatmasangiz, tizim avtomatik qiymatni o'rnatadi.

Jadvallarni o'chirish.

Jadvalni o'chirish imkoniga ega bo'lish uchun, jadval egasi (ya'ni yaratuvchisi) bo'lishingiz kerak. Faqat bo'sh jadvalni o'chirish mumkin. Qatorlarga ega bo'lgan, to'ldirilgan jadvalni o'chirish mumkin emas, ya'ni jadval o'chirishdan oldin tozalangan bo'lishi kerak. Jadvalni o'shirish komandasi quyidagi ko'rinishga ega:

```
DROP TABLE<table name>;
```

Jadvalni yaratilgandan so'ng o'zgartirish.

Jadvalni o'zgartirish uchun ALTER TABLE komandasidan foydalaniladi. Bu komanda jadvalga yangi ustunlar qoshish, ustunlarni o'chirish, ustunlar kattaligini

o'zgartirish, hamda cheklanishlarni qo'shish va olib tashlash imkoniyatlariga ega. Bu komanda ANSI standarti qismi emas, shuning uchun har xil tizimlarda har xil imkoniyatlarga ega.

Jadvalga ustun qo'shish uchun komandaning tipik sintaksisi:

```
ALTER TABLE <jadval nomi> ADD<ustun nomi>
```

1.2.3Jadvallar uchun cheklanishlar.

Cheklanishlarni kiritish.

Jadval yaratayotganimizda (yoki uni o'zgartirayotganimizda), siz maydonlarga kiritilayotgan qiymatlarga heklanishlar o'rnatishingiz mumkin. Bu holda SQL cheklanishlarga to'g'ri kelmaydigan hamma qiymatlarni rad etadi. Cheklanishlarning ikki asosiy turi mavjud: ustun va jadval cheklanishlar. Ularning farqi shundaki ustun cheklanishi faqat ayrim ustunlarga qo'llanadi, jadval cheklanishi bo'lsa bir yoki bir nechta ustunlar guruhiga qo'llanadi. Ustun cheklanishi ustun nomi oxiriga ma'lumotlar tipidan so'ng va vergul oldin qo'yiladi. Jadval cheklanishi jadval nomi oxiriga so'nggi dumaloq verguldan oldin qo'yiladi.

Cheklanishlar hisobga olingan CREATE TABLE komandasi sintaksisi:

```
CREATE TABLE <jadval nomi>  
(column name> <data type><column constraint>,  
(column name> <data type><column constraint>...  
<table constraint>(<column name>  
[<column name>])...);
```

Maydonga bo'sh (NULL) qiymatlar kiritilishi oldini olish uchun CREATE TABLE komandasida NOT NULL cheklanishi ishlatiladi. Bu cheklanish faqat har xil ustunlar uchun o'rnatiladi. Ko'p xollarda ustunga kiritilgan qiymatlar bir biridan farq qilishi kerak. Agar ustun uchun UNIQUE cheklanishi o'rnatilsa, bu ustungacha mavjud qiymatni kiritishga urinish rad etiladi. Bu cheklanish bo'sh bo'lmaydigan (NOT NULL) deb e'lon qilingan maydonlarga qo'llanilishi mumkin.

Unikalligi talab qilinadigan maydonlar (birlamchi kalitlardan tashqari) kandidat kalitlar yoki unikal kalitlar deyiladi.

Birlamchi kalitlar cheklanishlari.

SQL birlamchi kalitlarni to'g'ridan to'g'ri birlamchi kalit (PRIMARY KEY) cheklanishi orqali ta'riflaydi. PRIMARY KEY jadvalni yoki ustunlarni cheklashi mumkin. Bu cheklash UNIQUE cheklanishi kabi ishlaydi, faqat jadval uchun faqat bitta birlamchi kalit (ixtiyoriy sondagi ustunlar uchun) aniqlanishi mumkin bo'lgan xoldan tashqari. Birlamchi kalitlar NULL qiymatga ega bo'lishi mumkin emas.

Cheklanish FOREIGN KEY.

SQL ilovali yaxlitlikni FOREIGN KEY yordamida ta'minlaydi. Tashqi kalit vazifasi ajdod kalitda ko'rsatilmagan qiymatlarni tashqi kalit maydonlariga kiritmaslikdir. FOREIGN KEY cheklanishi sintaksisi:

```
FOREIGN KEY <column list>REFERENCES  
<fktable>[<column list>];
```

Birinchi ro'yxat komanda tomonidan o'zgartiriluvchi ustunlar ro'yxatidir. fktable-bu ajdod kalitli jadval. Ikkinchi ustunlar ro'yxati bu ajdod kalitni tashkil qiluvchi ustunlardir.

Kalitlarga cheklanish.

Ilovali yaxlitlikni ta'minlashni tashqi kalit yoki ajdod kalit maydonlari qiymatlariga cheklanishlar o'rnatishni talab qiladi. Ajdod kalit tarkiblangan bo'lib, tashqi kalit har bir qiymati bitta satrga mos kelishi ta'minlangan bo'lishi kerak. Bu kalit unikal bo'lib, bo'sh (NULL) qiymatlarga ega bolmasligi kerak. Shuning uchun ajdod kalit maydonlari PRIMARY KEY cheklanishiga ega bo'lishi yoki NOT NULL cheklanishi bilan birga UNIQUE deb e'lon qilinishi kerak.

Tashqi kalit ajdod kalitda mavjud qiymatlarga yoki bo'sh (NULL) qiymatga ega bo'lishi mumkin. Boshqa qiymat kiritishda urinish rad etiladi. Tashqi kalitga NOT NULL deb e'lon qilish muki, lekin bu maqsadga muvofiq emas.

1.2.4 Maydonlar qiymatlarini kiritish, o'chirish va o'zgartirish.

Qiymatlarni kiritish.

Hamma satrlarda Sqlda INSERT komandasi yordamida kiritiladi. INSERT quyidagi formatga ega:

```
INSERT INTO <table name | view name> [(column[,column]...)]
```

```
VALUES (<value>[,<value>]...);
```

Satrlarni o'chirish.

Satrlarni jadvaldan DELETE komandasi bilan o'chirish mumkin. U alohida qiymatlarni emas faqat satrlarni o'chiradi.

DELETE quyidagi formatga ega:

```
DELETE FROM< table name | view name>
```

```
[WHERE search-condition];
```

Maydon qiymatlarini o'zgartirish.

Bu o'zgartirish UPDATE komandasi yordamida bajariladi. Bu komandada UPDATE ifodasidan so'ng jadval nomi va SET ifodasidan so'ng ma'lum ustun uchun o'zgartirish ko'rsatiladi. UPDATE ikki formatga ega. Ulardan birinchisi:

```
UPDATE< table name | view name>
```

```
SET column=expression[,column=expression]...
```

```
[WHERE search-condition]
```

Bu yerda expression- bu ustun | ifoda | konstanta |o'zgaruvchi.

Ikkinchi variant:

```
UPDATE< table name>
```

```
SET column=expression,...
```

```
[FROM table-list]
```

```
[WHERE search-condition]
```

1.2.5 SELECT so'rov operatori.

SELECT operatori MB jadvallardan natijaviy to'plam olish uchun mo'ljallangan ifodadir. Biz SELECT operatori yordamida so'rov beramiz, u bo'lsa ma'lumotlar natijaviy to'plamini qaytaradi. Bu ma'lumotlar jadval shaklida

qaytariladi. Bu jadval keyingi SELECT operatori tomonidan qayta ishlanishi mumkin va hokazo.

Operator SQL-92 standartiga ko'ra quyidagi ko'rinishga ega:

Birinchi qoida, SELECT ifodasi o'z ichiga albatta FROM ifodasini olishi kerak. Qolgan ifodalar kerak bo'lsa ishlatiladi.

SELECT ifodasidan so'ng so'rovda qaytariluvchi ustunlar ro'yxati yoziladi.

FROM ifodasidan so'ng so'rovni bajarish uchun jadvallar nomi yoziladi.

WHERE ifodasidan so'ng agar ma'lum satrlarni qaytarish lozim bo'lsa, izlash sharti yoziladi.

GROUP BY ifodasi guruhlariga ajratilgan natijaviy so'rov yaratishga imkon beradi.

HAVING ifodasidan guruhlarini qaytarish sharti yoziladi va GROUP BY bilan birga ishlatiladi.

ORDER BY ifodasi ma'lumotlar natijaviy to'plamini tartiblash yo'nalishini aniqlaydi.

1.3 HTML tili va PHP dasturlash tili.

1.3.1 HTML tili.

Internet sayyoramiz miqyosidagi kompyuter tarmoqlarining birlashmasidir. Agar kosmik stansiya a'zolarining E-mail dan foydalanishini inobatga olsak internetning sayyoramiz sarhadlaridan chiqqanini ham ko'rishimiz mumkin. Butun dunyo o'rgimchak to'ri WWW (World Wide Web)-bu ko'p sonli o'zaro bir-biriga bog'langan hujjatlardir. Web sahifada boshqa boshqa Web sahifalar bilan bog'lovchi chekli gipermurojaat bo'ladi. Gipermurojaat mexanizmini bir necha so'z bilan izohlash qiyin, lekin kamida bir marta Web sahifaga kirib ishlagan odam buni darhol tushunadi.

Internet ehtiyoji uchun SGML tilining ma'lum bir qismi tanlab olindi va HTML (Hyper Text Markup Language) deb nomlandi. HTML tilida yozilgan Web sahifa faylida axborotning qanday tasvirlanishi haqidagi yo'l yo'riqlar ketma-ket joylashgan bo'ldi. Bu fayl oddiy matnli fayl bo'lib uni maxsus brauzer dasturlarsiz o'qish qiyin. Grafik rasmlarni esa umuman ko'rib bo'lmaydi, chunki uning o'rnida

brauzer dasturga biror rasm kerakligini ko'rsatuvchi TEG turadi. Agar biz o'z Web sahifamizni yaratmoqchi bo'lsak, albatt HTML tilini yaxshi bilishimiz kerak bo'ladi.

TEGlar.

HTML ning konsteuksiyasi TEGlar deyiladi. Brauzer TEGlarni oddiy matnlardan farqlashi uchun ular burchak qavslarga olinadi. TEG tasvirlash jarayoni hatti-harakatlarining boshlanishini bildiradi. Agar bu harakat butun hujjatga taaluqli bo'lsa, bunday teg o'zining yopiluvchi juftiga ega bo'lmaydi. Juft teglarning ikkinchisi birinchisining harakatini yakunlaydi. Masalan, har bir Web sahifa <html> tegi bilan boshlanib </html> tegi bilan yopilishi kerak. E'tibor bergan bo'lsangiz yopiluvchi teg ochiluvchidan « / » belgisi bilan farqlanadi. Teg nomlari katta yoki kichik harflar bilan yozilishi mumkin, bularni brauzer bir xil qabul qiladi. HTML tilida boshqa kompyuter tillaridagi kabi izoh berish imkoniyati mavjud. Izoh quyidagi « <- - » va « - ->» belgilar orasiga yoziladi.

Masalan:

<- - Bu izoh- ->

Har qanday Web sahifa ikkita qismdan tashkil topadi. Bular sarlavha qismi va asosiy qism. Sarlavha qismida Web sahifa haqidagi ma'lumot joylashadi, asosiy qismda esa Web sahifaning mazmuni bilan tasvirlanish qoidalari joylashadi. Sarlavha qismi quyidagi ochiluvchi <head> va yopiluvchi </head> teglari orasida joylashadi. Asosiy qism esa <body> va </body> teglari orasida joylashadi. Odatda sarlavha qismi oldindan qo'llanilayotgan HTML standarti haqida ma'lumot yoziladi. Har qanday Web sahifaning umumiy ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

Misol:1

```
<!DOCTYPE HTML PUBLIC "-//W3S//DTD HTML 4.01//EN ">
```

```
<html>
```

```
<head>
```

```
Hujjat sarlavhasi
```

```
</head>
```

```
<body>
```

Asosiy qism

```
</body>
```

```
</html>
```

Natija: Asosiy qism

Birinchi <!DOCTYPE> tegi o'zining parametrlari bilan brauzerga ushbu Web sahifani qaysi HTML versiyada yozilganligi haqida ma'lumot beradi.

Web sahifa ishga tushirilganda brauzerning eng yuqori satrida yuklanayotgan hujjat mazmunini anglatuvchi qisqacha yozuv turadi. Bu yozuvni hosil qilish uchun quyidagi ochiluvchi <title> va yopiluvchi </title> teglaridan foydalanamiz.

Web sahifaning asosiy qismi <body> va</body> teglari orasida joylashadi. Bu oddiy matn bo'lishi mumkin. Brauzer bu matnni to'g'ridan-to'g'ri interpretatsiya qilib ekranda tasvirlaydi. Bizga dastlabki Web sahifamizni yaratish uchun oddiy «Bloknot» matn muharriri kifoya. Quyida ko'rsatilgan misolni matn muharririda yozib, uni xotiraga yozishda kengaytmasini html yoki htm deb kiritishimiz kerak.

Misol:2

```
<html>
```

```
<head>
```

```
<title>Mening birinchi Web sahifam </title>
```

```
</head>
```


```
<body>
```

```
Sahifamga kiruvchilarga alangali salom
```

```
</body>
```

```
</html>
```

Bu faylni ishga tushirish uchun sicqoncha ko'ratkichini shu fayl ustiga keltirib chap tugmasini ikki marta bosish kerak. Natijada ekranda hosil bo'ladi:



`<body>` tegi bir qancha qo'shimcha parametrlarga ega. Bu parametrlar tegning ochiluvchi qismida joylashadi. Parametrlar ikki qismdan iborat bo'ladi: parametr nomi va parametr qiymati. Masalan *bgcolor* parametri tasvirlanayotgan Web sahifa fonining rangini belgilaydi.

Masalan: `<bgcolor="green">`

Parametrlarning satrli qiymatlari qo'shtirnoq ichida yoziladi. Biz quyidagi `<body>` tegining parametrlari bilan tanishamiz.

- Background-fon sifatida biror bir grafik tasvirdan foydalanish. Parametr qiymati sifatida grafik tasvir joylashgan manzil (URL) beriladi.
- Text- tasvirlanayotgan matn rangi.
- Link-Web sahifadagi matnli gipermurojaat rangi.
- Vlink-foydalanuvchi tomonidan oldin murojaat qilingan gipermurojaat rangi.
- Alink-foydalanuvchi tomonidan tanlangan gipermurojaat rangi.
- Lang-Web sahifa matni yozilgan tilni aniqlash.

Identifikatorlar.

HTML tilida har bir qo'llanilgan tegga unikal identifikator berish imkoniyati mavjud. Masalan matn bir necha abzatlardan tashkil topgan bo'lsin. Har bir

abzatsga maxsus nom berish mumkin, keyinchalik HTML tilining qo'shimcha imkoniyatlari yordamida bu abzatlarni boshqarish mumkin, ya'ni ularning birortasini ko'rinmas qilish yoki shrifti rangini o'zgartirish.

HTML hujjatda *id* parametri qiymatlari takrorlanmasligi lozim, aks holda bu qiymatlar e'tiborga olinmaydi.

HTML hujjatini tashkil etuvchi barcha elementlar ikki turga bo'linadi: *inline* elementlar va *blokli* elementlar. Inline elementlar oddiy matn elementlari bo'lib satr qismi ham bo'lishi mumkin, blokli elementlar esa har safar yangi satrdan boshlanishi shart. Blokli elementlar boshqa blokli elementlar va inline elementlaridan tashkil topishi mumkin, lekin inline elementlar blokli elementlarni o'z ichiga olmaydi. Web sahifa elementlarini bloklarga birlashtirish ularga birvarakayiga shakl berish imkonini beradi, ya'ni birlashtiruvchi yagona tegni aniqlab blok joylashuvini o'zgartirish mumkin. Tabiiyki bu Web sahifa elementlarning har birininh joylashuvini alohida o'zgartirishdan oson.

Blokli tip elementlarini birlashtirish uchun `<div>` va `</div>` yeglari qo'llaniladi. Inline elementlari esa `` va `` teglari orqali birlashtiriladi. `` va `<div>` teglari qo'shimcha parametrlarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Bizga ma'lum bo'lgan *id* va *class* parametrlaridan tashqari *style* va *align* parametrlari ham ishlatiladi. *style* parametri shu blokdagi ma'lumot stilini o'rnatadi, *align* parametri shu ma'lumotni qanday tekislashni aniqlaydi. HTML hujjatida sarlavhaning o'z teglari mavjud bo'lib, ular oltitadir. Eng yuqori darajasi bu birinchidir. Har bir sarlavhaning o'z tegi va o'z tasvirlanish qoidasi mavjud. Eng katta ya'ni birinchi darajali sarlavha `<h1>` va `</h1>` teglari orqali, ikkinchi darajali sarlavha `<h2>` va `</h2>` teglari orqali va oxirgi oltinchi darajali sarlavha `<h6>` va `</h6>` teglari orqali ifodalanadi.

Ranglar va o'lchov birliklari.

HTML hujjatining kodida biz hamisha biror bir bezak obyektning o'lchamlarini yoki ularning ranglari xususiyatlarini ko'rsatishimizga to'g'ri keladi.

HTML tilida rang va o'lchov birliklarini qo'llashning standart qoidasi mavjud.

Rang berishning ikkita usuli mavjud. Ko'p qo'llaniladigan usul kerak rangning RGB kodini ko'rsatishdir. Ma'lumki har qanday rangni uchta asosiy:qizil yashil va ko'k ranglarning qarishmasidan hosil qilish mumkin. Brauzerlar bizga o'n olti milliondan ortiq rangni tasvirlash imkonini beradi, chunki asosiy uchta rangdan har birining qiymati 0 dan 255 gacha qiymat qabul qiladi. Ixtiyoriy rang har biri asosiy ranglarning ulushini ifodalovchi 3ta son majmuasidan iborat bo'ladi.

HTML tilida rang qulaylik uchun 16lik sistemadagi 6ta raqamdan tashkil topadi.

Masalan:

Color="#FF0000"

16lik raqamlar oldida "#" belgisi qo'yiladi. Rang ulushlarini ko'rsatib turuvchi raqamlar tartibiga e'tibor berish kerak. Chunki birinchi qizil, ikkinchi yashil va uchunchi ko'k rang ulushlari joylashadi.

height="3"

Karrali o'lcham berish belgisi sifatida yulduzcha(*) belgisi ishlatiladi. karrali son koeffitsiyenti hisoblanganda (*) belgisining chap tomonidagi son 10 ga ko'paytiriladi. Brauzer bunday obyektlarni maksimal o'lchamda tasvirlashga harakat qiladi.

Matnlarni bezash.

HTML tilida matni tasvirlashning bir qancha usullari mavjud. Brauzer ekranida matn satrini tasvirlash uchun hech qanday teg ishlatishga hojat yo'q. Matnni yozish kifoya. Lekin uni hattoki abzatsga bo'lish ham teglarsiz amalga oshmaydi. Har xil kompyuter tizimlarida matnlarni abzatsga bo'lish uchun har xil simvollar ishlatiladi, lekin HTML hujjati kompyuter tizimi qanday bo'lishidan qat'iy nazar bir xil tasvirlanishi lozim va shuning uchun abzatsni ifodalovchi teg kiritilishiga to'g'ri kelgan. Har bir abzats boshida <p> tegi qo'yiladi, oxirida esa yopiluvchi </p> tegi qo'yiladi. Bu teg o'z parametrlariga ega. Bu parametrlar qatoriga identifikatsiya parametrlari *class* va *id*, shaklli bezash parametri *style* va tekislash(tenglash) parametri *align* kiradi.

Abzatsni brauzar oynasining o'ng yoki chap tomoniga tekislash, markazlashtirish yoki to'la eniga yoyib yozish uchun ularga mos ravishda *left*, *right*, *center* va *justify* qiymatlari ishlatiladi.

Ba'zan Web sahifa yaratuvchilar bzatslar oralig'ini kengaytirish uchun bo'sh abzatlardan foydalanishadi, ya'ni abzatsning ochiluvchi va yopiluvchi teglarining ichiga hech narsa yozmasdan qo'llashadi. Brauzerlar esa bu narsani e'tibordan chetda qoldiradilar. Shuning uchun abzatlarni ajratish yoki biror abzatsning ichidagi satrni bo'lib keyingi satrga o'tkazish uchun `
` tegi ishlatiladi. bu teg matnning shu qismini keyingi satrga o'tkazish kerakligini anglatadi.

Font tegi.

Endi matn shriftlarini bezash usullarini ya'ni font tegini ko'rib chiqamiz. Biz `` tegini parametrlari bilan birga abzatsning ixtiyoriy yerida qo'llashimiz mumkin. Bu tegdan keyingi matnlar parametrda ko'rsatilgan qiymatlar bo'yicha ekranda tasvirlanadi. `` tegini yopiluvchi tegi `` shunday ko'rinishda bo'ladi. `` tegi o'zining qo'llanilayotgan shrift o'lchamini ko'rsatuvchi *size*, shrift simvollarining rangiga belgilovchi *color* va matn qaysi shriftda tasvirlanishini belgilovchi *face* parametrlariga ega. *Size* parametri qiymat sifatida 0 dan 7 gacha bo'lgan sonlarni qabul qiladi. Bu sonlar matndagi simvollar o'lchamini bildiradi. Foydalanuvchi brauzeri biz ko'rsatgan shrift o'lchamiga maksimal mos keluvchi o'lchamni tanlashi kerak. *Size* parametri qiymati sifatida biz shrift o'lchamini berishimiz mumkin. Masalan shrift o'lchamini bittaga oshirish uchun quyidagi konstruksiyani yozishimiz kerak:

```
<font size="+1">
```

Shrift (simvol) o'lchamlarini ikki birlikka kichraytirish uchun esa quyidagini yozishimiz kerak:

```
<font size="-2">
```

font tegining navbatdagi parametri bu *color* parametridir. *Color* parametri quyidagicha yoziladi:

```
<font color="rang">
```

Masalan qo'llanilayotgan shrift simvollarini yashil rangda tasvirlash uchun quyidagini yozishimiz lozim:

```
<font color = "green">
```

Navbatdagi *face* parametri esa qo'llanilishi kerak bo'lgan shriftni belgilaydi. Biz matnni *face* yordamida *Times New Roman* yoki *Copperplate Gothic* shriftlari yordamida tasvirlanishini ko'rsatishimiz mumkin.

1.3.2 Ro'yxatlar haqida umumiy tushuncha.

HTML hujjatda ma'lumotlarni qulay shaklda tasvirlash maqadida ro'yxatlar va jadvallar tashkil qilingan. Ro'yxatlar elementlarini nuqtalari bo'yicha tartiblasa, jadvallar esa ma'lumotlarni satrlar va ustunlar bo'yicha joylashtiradi. Ro'yxatlardan to'g'ri foydalanish katta hajmli ma'lumotlarning o'qilish qulayligini oshiradi. Ro'yxatlarni quyidagi uchta holatda qo'llash maqsadga muvofiq:

1. Bir jinsli ma'lumotlarni biror belgilar bo'yicha sinflarga ajratish;
2. Katta hajmli ma'lumotlarni abzats bilan tasvirlashda ularni o'qish qiyinlashsa;
3. Biror bir jarayonni tasvirlashda;

Quyidagi bir misolni ko'ramiz:

Misol:4

```
<html>
```

```
<body>
```

Fanlar

```
<ul>
```

```
<li>Informatika
```

```
<li>Matematika
```

```
</ul>
```

```
</body>
```

```
</html>
```

Natijada: Fanlar

- Informatika

- Matematika

Bundan ko'rinadiki ro'yxatlar ma'lumotlarni oson va tushunarli o'qilishini ta'minlaydi. Ro'yxatlar asosan 3 ta asosiy tiplarga bo'linadi. Bular: markirlangan, nomerlangan va aniqlovchi ro'yxatlar. Bulardan tashqari boshqacha tipli ro'yxatlar ham mavjud, ammo ko'p qo'llaniladiganlari biz sanagan uchtasidir. Yuqorida biz sanab o'tgan tiplar bir-biridan nomerlash usullari va tuzulishi bilan farq qiladi.

Markirlangan ro'yxatlar.

Ko'pchilik hollarda nomerlangan yoki markirlangan ro'yxatlardan foydalaniladi. Bunday ro'yxatlarda har bir punkt kichik piktogramma bilan boshlanadi. Markirlangan ro'yxatlar va teglari yordamida beriladi.

Misol:5

```
<html>
  <head><title>Markirlangan ro'yxatlar</title></head>
  <body>
    <ul>
      <lh><b>Kompyuter avlodlari</b></lh>
      <li> I-avlod
      <li>II-avlod
      <li>III-avlod
      <li>IV-avlod
    </ul>
  </body>
</html>
```

Natija: Kompyuter avlodlari

- I-avlod
- II-avlod
- III-avlod
- IV-avlod

Bu yerda <lh> va </lh> teglari orasida ro'yxat sarlavhasi yozilgan. Barcha va teglari va markirlangan teglar orasiga joylashgan bo'lishi shart.

 tegi *type* parametriga ega va biz bu parametr qiymatlari bilan tanishib chiqamiz. Bu parametr yordamida ro'yxatda hosil qilinadigan ro'yxat elementlari oldidagi markerlar tipi aniqlanadi. Parametr qiymati sifatida quyidagi uchta qiymatlardan foydalanosh mumkin:

1. *disc* –bu qiymat brauzerga markerarni kichik qoraga bo'yalgan doira shaklidaligini ko'ratadi.
2. *circle*-bu qiymat esa brauzerga markerning bo'yalmagan aylana shaklida bo'lishini bildiradi.
3. *square*-bu qiymat markerning kichik to'g'ri to'rtburchak shaklida bo'lishini bildiradi.

Ta'kidlab o'tish kerakki u yoki bu hosil qilinadigan markerlarni bir xilligi hamma vaqt ham bir xil bo'lavermaydi. Brauzer turiga qarab har xil bo'lishi mumkin.

Nomerlangan ro'yxat.

Nomerlangan ro'yxat markerlangan ro'yxatga o'xshaydi. Yagona farqi shundaki nomerlangan ro'yxatda har bir punkt oldiga grafik marker emas balki avtomatik ravishda ketma-ket nomerlangan yoki harflar joylashtiriladi.

Nomerlangan ro'yxat va teglri yordamida beriladi, ro'yxatdagi punktlar esa , bilan aniqlanadi. Jimlik bo'yicha nomer 1 dan boshlanadi.

Misol:6

```
<html>
  <body>
    <ol type=1,2,3..>
      <lh><b>O'tiladigan fanlar ro'yxati</b></lh>
      <li>Informatika
      <li>Dasturlash asoslari
    </ol>
  </body>
</html>
```

Natija: O'tiladigan fanlar ro'yxati

1. Informatika

2. Dasturlash asoslari

Formalar haqida umumiy ma'lumot.

HTML formalar, foydalanuvchilar tomonidan ma'lumotlarni kiritish va kiritilgan ma'lumotlardan keyinchalik foydalanish maqsadida tashkil qilingan. Formalar – matnli oynalar, tugmalar, bayroqchalar, ulagichlar (pereklyuchatel) lar va menyular kabi boshqariladigan elementlardan tashkil topishi mumkin. Formalar `<form>` va `</form>` teglari orasida joylashadi.

Ba'zi hollarda foydalanuvchi bilan brauzer o'rtasida aktiv muloqot qilishga to'g'ri keladi, ya'ni ma'lumotlarni kiritishga va tahrir qilishga to'g'ri keladi. Bunday hollarda biz yuqorida aytganimizdek HTML hujjatning formalar deb ataluvchi bo'limidan foydalanamiz. Foydalanuvchi yuqorida ko'rsatilgan formalarni ma'lumotlar bilan to'ldiradi va uni qayta ishlash uchun serverga jonatadi. Server bu odatda Web-server yoki elektron pochta serveri bo'lishi mumkin.

HTML formalar quyidagi boshqariladigan elementlardan foydalanadi:

Tugmalar (buttons)

Uchta turdagi tugmalar mavjud:

- Jo'natuvchi tugmalar- bu tugmalar yordamida formalar serverga qayta ishlash uchun jo'natiladi.
- Inkor etuvchi tugmalar- bu tugma bosilsa formaning hamma qiymatlari qaytadan boshlang'ich holatiga o'rnatiladi.
- Umumiy tugmalar – bunday turdagi tugmani bosganda shu tugmaga bog'langan protsedura ishga tushadi.

Bayroqchalar (checkboxes)

Bayroqcha- bu ikkita (tanlangan yoki tanlanmagan) holatga ega bo'ladigan element. Bayroqchalar *input* elementi yordamida hosil qilinadi.

Ulagichlar (radiobuttons)

Ulagichlar ham bayroqchalarga o'xshaydi, ammo bitta farqi hamma elementlari bitta nomga ega bo'ladi va shulardan bittasi tanlanadi. Ulagichlar ham *input* yordamida tashkil qilinadi.

Menyular (menus)

Menyu foydalanuvchiga bir nechta variantlardan bir yoki bir nechtasini tanlash imkoniyatini yaratadi. Menyu *select* elementi yordamida *ortgroup* va *option* lar bilan birgalikda tashkil qilinadi.

Matn kiritish maydoni (text input)

Matnni foydalanuvchi tomonidan kiritilishini amalga oshiruvchi ikkita element mavjud. *Input* elementi bitta qatorli kiritishni ta'minlaydi. *Textarea*- ko'p qatorli kiritishni amalga oshirish uchun ishlatiladi.

Formalar tashkil qilish form elementi yordamida amalga oshiriladi.

1.3.3.PHP dasturlash muhiti.

PHP dasturlash tili maxsus internet bilan ishlash uchun mo'ljallangan. Aslida PHP serverda qayta ishlashni amalga oshiradigan HTMLga qo'shimcha script tili deb ataladi. PHP-serverda bajarilishi bilan JavaScriptdan, HTML_kod bilan aralashgan holda yoziladi.

PHP dasturni o'rnatish – bu doim murakkab jarayon, sababi hech bir tizim boshasiga o'xshamaydi, har bir holatda oldin hech kim to'qnashmagan muammolar yuzaga kelishi mumkin. Har holda ma'lumotlar omboringiz o'rnatilgan va kiritilgan, PHP-dvijok kompilirlangan, o'rnatilgan va Web-server bilan bog'langan, bu server .php3 kengaytmali hujjatlar bilan nima qilish kerakligini biladi.

Web sahifalarni va tarmoqni yaratish yo'llari o'zgarishi bilan PHP ham takomillasha bordi. 1990-yil o'rtalariga kelib katta tarmoqlarda ham HTML da yozilgan yuzlab statik sahifalar ishlatilar edi. Hozir esa jarayon o'zgarib bormoqda. Web sahifalarni yaratuvchilar ma'lumotlar bazasi bilan ishlovchi Web sahifalarni yaratish imkoniga ega bo'lib, foydalanuvchilarni qayta ishlash imkoniga ega bo'lgan Web sahifalarni yaratmoqdalar.


Ma'lumotlarni saqlash va ma'lumotlarga murojaat qilish uchun ma'lumotlar bazasidan foydalanish yanada aktuallashib, mobil telefonlar, raqamli televideniya

va hokazolar. Turli xil qurilmalarda ma'lumotlarni uzatishda sifatni o'sishiga erishishmoqda.

PHP dasturlari ikki usulda bajarilishi mumkin: Web server tomonidan ssenriy ilovasi va konsol dasturi sifatida.

Bizning maqsadimiz Web ilovalarni dasturlash bo'lgani uchun asosan birinchi usulni ko'ramiz.

PHP odatda internet bilan bog'liq dasturlar yaratish uchun ishlatiladi. Serverga brauzerning murojaat qilishi yordamida php-ssenariylari bajarilishini ko'rib chiqamiz. Avval brauzer .php kengaytmali sahifani so'raydi, so'ngra Web server dasturni PHP mashinadan o'tkazadi va natijani html-kod sifatida qaytaradi. Agar standart HTML sahifani olib, kengaytmasini .php ga o'zgartirilsa va PHP mashinadan o'tkazilsa, foydalanuvchiga o'zgartirmasdan qaytaradi. Bu faylga PHP komandani qo'shish uchun, PHP komandalarni maxsus teglar ichiga olish kerak. PHP kodlar alohida maxsus dasturiy vositalardan tashqari Notepad++, Bloknot, Dreamwiaver va shu kabi muhitlarda yozib xotiraga saqlashda kengaytmasini .php deb saqlasak ham ishlayveradi. Endi phpDesigner7 dasturini ishga tushirishni ko'rib chiqamiz. Buning uchun start denver yorlig'i ustiga sichqonchani chap tugmasini ikki marta bosiladi. Keyin esa Пуск-> phpDesigner ni tanlanadi va openni bosib keyingi oynaga o'tiladi. Kod yozish uchun PHP-> File-> New file tanlanadi.



1.2-chizma. phpDesigner7 oynasining ko'rinishi.

PHPda o'zgaruvchilar dollar (\$) belgisidan boshlanadi. Bu simvoldan keyin ixtiyoriy sondagi harf, raqam va ostiga chiziq simvollari kelishi mumkin, lekin birinchi simvol albatta harf bo'lishi kerak. Shuni esda tutish kerakki, PHPda o'zgaruvchilarning nomlari kalit so'zlardan farqli bo'lishi kerak.

